

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI
VAZIRLIGI
SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI**

**Veterinariya, zootexniya va qorako'lchilik fakulteti
5640100– «Veterinariya» ta'lim yo'nalishi**

AVAZOV XURSHID O'KTAMOVICHNING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**«SIL KASALLIGIGA QARSHI KURASH TADBIRLARI
MAJMUASI»**

**Ilmiy rahbar:
professor**

Salimov X.S.

**«Hayvonlar kasalliklari va
parazitologiya» kafedrasi
mudiri, dotsent**

_____ **B.B.Bakirov**

«_____» _____ **2013 y.**

№_____ -sonli yig'ilish bayoni

**Veterinariya, zootexniya va
qorako'lchilik fakulteti
dekani, dotsent**

_____ **N.O.Farmonov**

«_____» _____ **2013 y.**

Samarqand - 2013

MUNDARIJA

I. Kirish	3
1.1. PQ 308, 842, Barkamol avlodni tarbiyalash Davlat Dasturi, jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozidan chiqish Dasturi.....	3
1.2. Mavzuning dolzarbligi va ahamiyati.....	12
1.3. Adabiyotlar sharxi	13
II. Xususi tadqiqotlar	14
2.1. Sil kasalligi etiologiyasi va epizootologiyasi.....	14
2.2. Infeksiyaning yuqish yo'llari.....	18
2.3. Patologik materialni olish va diagnostik tekshirish metodlari	19
2.4. Sil kasalligining umum va maxsus profilaktik tadbirlari.....	21
2.5. Bajarilgan veterinariya tadbirlarining samaradorligi.....	24
III. Veterinariya qonunchiligida tuberkulyoz kasalligiga qarshi kurashish bo'yicha yo'riqnomalar	25
IV. ASM da ishlab chiqarishni tashkil etish	28
V. Mehnat muhofazasi va hayot xavfsizligini ta'minlash	33
VI. Tadqiqot natijasi bo'yicha taklif, tavsiyalar	38
VII. Adabiyotlar ro'yxati	40
VIII. Internet ma'lumotlari.....	43

1. KIRISH

1.1. PQ 308, 842, Barkamol avlodni tarbiyalash Davlat Dasturi, jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozidan chiqish Dasturi.

Chorvachilikni intensiv rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari PQ-308, PQ-842, asalarichilikni rivojlantirish, sun'iy qochirishni yaxshilashga qaratilgan qarorlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov 2010 yil 5 dekabr kuni mamlakatimiz konstitutsiyasi qabul qilinganligining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishida "O'zbekiston konstitutsiyasi biz uchun demokratik taraqqiyot yo'liga va fuqorolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevor" mavzusidagi maruzasida 2010 yilni "Barkamol avlod yili" deb e'lon qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 27 yanvardagi PQ 1271-sonli qarori bilan "Barkamol avlod yili" Davlat dasturi tasdiqlandi. U 11 bo'lim va 101 banddan iborat.

"Barkamol avlod yili Davlat dasturining mazmuniga ko'ra; mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit – qizlarini, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan har tomonlama yetuk shaxslar etib voyaga yetkazish uchun shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo'yicha keng ko'lamli aniq yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan.

"Barkamol avlod yili" Davlat dasturining mohiyati Prezident I.A.Karimovning 2010 yil 27 yanvarda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va senatining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqorolik jamiyatini barpo etish ustuvor maqsadimizdir" hamda 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasining 2010 yil 29 yanvarda bo'lib o'tgan majlisida "asosiy vazifamiz- vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yanada yuksaltirish" nomli mavzusida ochib bergan.

Dastur bo'limlari quyidagilardan iborat.

1. Bolalar va yoshlarning huquq va manfaatlari himoya qilishga, ularni barkamol rivojlantirishning huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan meyoriy – huquqiy bazani takomillashtirish.

2. Onalar va bolalarning reproduktiv salomatligini muxofaza qilish tizimini takomillashtirish, profilaktikaga asoslangan sog'liqni saqlash tizimini ustuvor rivojlantirish, tibbiy xizmat moddiy texnika bazasini mustahkamlash asosida sog'lom avlodni voyaga yetkazish borasidagi chora- tadbirlarni yanada kuchaytirish.

3. Ta'lim sohasida moddiy texnika shakllantirishi va undan samarali foydalanishni ta'minlash, real iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida talab qilinayotgan mutaxasislarni tayyorlash, davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va o'quv uslubiy adabiyotlarini takomillashtirish.

4. Ta'lim jarayoniga yangi axborot- kommunikasiya va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, ta'lim mutaxasislarining o'quv laboratoriya bazasini mustahkamlash, o'qituvchilar va murabbiylar mehnatini moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirishning samarali tizimini shakllantirish hisobiga mamlakatimiz maktablarida kasb-hunar kollejlari, litsey va oliy o'quv yurtlarida o'qitish sifatini tubdan yaxshilash.

5. Zamonaviy axborot va kommunikasiya texnologiyalari, raqamli va keng formatli telekommunikasiya aloqa vositalari hamda Internet tizimini yanada rivojlantirish, ularni har bir oila hayotiga joriy etish va keng o'zlashtirish.

6. Yosh avlodni jismonan barkamol etib tayyorlash bolalar sportini rivojlantirish sohasidagi ishlarni kuchaytirish, yoshlarni sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish, yangi sport majmualarini qurish va jihozlash, ularni yuqori malakali ustoz va murabbiylar bilan ta'minlash.

7. Yoshlarni, eng avvalo, kasb –hunar kollejlari va oliy ta'lim muassalari bitiruvchilarni, ayniqsa qishloq joylarida tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish,

8. Yoshlarni ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratish, fanni yanada rivojlantirish hamda istedodli, iqtidorli yoshlarni ilmiy faoliyatga faol jalb etish,

9. Yosh bolalar to'g'risida g'amxo'rlikni kuchaytirish, ularning huquqiy muxofazasini taminlash, sog'lom va mustahkam oila qaror toptirish uchun shart-sharoitlar yaratish,

10. Yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi tamoyillarini qaror toptirish, ularni giyohvandlik, ahloqsizliklardan, chetdan kirib keladigan ekstrimistik markazlar hamda past saviyali "Ommaviy madaniyat" Mamlakatning zararli ta'sirlari, tahdididan muxofaza qilish,

11. Barkamol avlod yili "Davlat dasturining maqsadi, mazmuni va ahamiyati to'g'risida ommaviy axborot, tushuntirish ishlarini tizimli asosda tashkil etish.

O'zbekiston Respublikasi OO'MT vazirligining 2010 yil 9- fevralidagi 212-sonli hamda Samarqand viloyat hokimining 2010 yil 10 fevraldagi 31-Q sonli qarorlari bilan Davlat dasturi bandlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirish yuzasidan Tarmoq Dasturi tasdiqlangan.

Institutimizda "Barkamol avlod yili" Davlat dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish yuzasidan harakat dasturi ishlab chiqarilgan 2010 yil 26 fevraldagi 46- sonli buyruq bilan tasdiqlangan.

Institut xususiyatidan kelib chiqqan holda "Barkamol avlod yili" Davlat dasturining 45 ta bandi bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqarilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 27 yanvardagi PQ-1271 sonli "Barkamol avlod yili" Davlat dasturi to'g'risidagi qarorining institutdagi ijrosi Monitoringni olib borish bo'yicha. Ishchi guruh tarkibi, Davlat dasturidagi vazifalarini institutda amalga oshirish bo'yicha kengash tarkibi, Davlat dasturi to'g'risidagi qarorining aholi hamda professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasida targ'ibot-tashviqot qiluvchi ishchi guruh tarkibi 2010 yil 1 martdagi 60-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

Dasturning bajarilishi yuzasidan belgilangan shakl asosida hisobotlar OO'MTV- bahor oyining 20- sanasida, va chorak oxirida, taqdim etib kelinmoqda.

Jahon moliyaviy –iqtisodiy inqirozdan chiqish, barkamol avlodni voyaga yetkazish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-308 2006 yil 23 mart chiqarilgan bo'lib "Shaxsiy yordamchi, deqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'patirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" unda ayni paytda shaxsiy yordamchi, deqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish hamda mustahkamlash, birinchi navbatda qoramol boqish va yetishtirish, shu asosida qishloq aholisini bandlik darajasini ko'tarish va oilalar daromadini oshirishning mavjud imkoniyatlaridan to'liq foydalanilayotganligi qayd etilgan.

Chorva mol boqayotgan shaxslarni ish bilan band aholi toifasiga kiritish va ularni ijtimoiy muhofaza qilish masalalari hal etilmagan. Xo'jaliklarni zotdor, sermaxsul chorva mol bilan, omuxta yem va shirali ozuqa bilan ta'minlash borasidagi ishlar qoniqarsiz ahvolga, zooveterinariya va boshqa servis xizmatlari ko'rsatish bo'yicha infratuzilma tarmog', shuningdek shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarida chorvachilikni rivojlantirishni tizimi yaxshi yo'lga qo'yilmagan. PQ-308, 10 banddan iborat bo'lib, uning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Sh.M.Mirzayev zimmasiga yuklangan.

Dasturning bajarilishi bo'yicha hisobot barcha viloyat hokimligidan yilning har choragida O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasi, Qoraqolpog'iston Respublikasi vazirlar kengashi va viloyat hokimligi majlisida ko'rib chiqilsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-842 2008 yil 21 aprelda chiqarilgan bo'lib "Shaxsiy yordamchi, deqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'patirishni rag'batlantirish kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-308 ni to'ldiruvchi qarordir, hamda uning ijrosini tahlil va nazorat qiladi, ish jarayonida mavjud muommolarni obektiv ravishda ijobiy hal etadi, PQ-842- qaror 11- banddan ibrat uning bajarilishi nazorati ham Respublika Bosh vaziri Sh.M.Mirzayev zimmasiga yuklangan.

Suniy qochirish punktlari, pullik veterinariya servis xizmatlar, umuman zooveterinariya xizmatlari jahon andozalari talabiga javob berishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch", asari 2009 yil nashr etildi, bu asarda O'zbekiston Respublikasi tarraqiyotining o'ziga xos ustuvor yo'nalishlari yoritib berilgan.

Bu asarda ayniqsa yoshlarimizning yuksak ma'naviyat, ma'rifati sohiblari bo'lishlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Eng kuchli inson bu yuksak ma'naviyatli va ma'rifatli kishidir, ta'lim tarbiyaning asosiy negizi va maqsadi mana shunday kelib chiqishi shart va lozim. Yuksak ma'naviyatli inson hyech vaqt xatoga yo'l qo'ymaydi va adashmaydi, milliy qadriyatlarimizni g'ururimizni, boyliklarimizni, rivojlantiradi va davom ettira oladi. Demak bog'cha, maktab, litsey, kollej, institut.

Jamoatchilik joylari, mahalla fuqoralar yig'ini yuksak ma'naviyatli, ma'rifatli, jismonan va aqlan sog'lom, teran fikrli qiz-o'g'illarni voyaga yetkazish asosiy va bosh masala bo'lishini o'z faoliyatlarida ko'rsatishi ham farz, ham qarz.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jahon molyaviy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari", 2009 yil asari ikki qismdan iborat.

- Birinchisi - Jahon molyaviy inqirozi, O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri hamda uning oqibatlarini oldini olish va yumshatishga asos bo'lgan omillar;

- Ikkinchisi - bank tizimini qo'llab quvvatlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik yangilash va diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish-O'zbekiston uchun inqirozni bartaraf etish va jahon bozorida yangi moddalarga chiqishning ishonchli yo'lidir.

Birinchi qism yechimi 7 ta bandda berilgan.

Ikkinchi qism yechimi, mamalakatimizda jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 2009-2012 yillarga mo'ljallab qabul qilingan inqirozga qarshi choralar dasturi- O'zbekistonning 2009 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi.

Inqirozga qarshi choralar dasturining konkret bo'limlari -belgilangan kompleks chora-tadbirlar quyidagi asosiy vazifalarni hal etishga qaratilgan.

- Birinchidan - korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish. Bu vazifa avvalom bor iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari, eksportga yo'naltirilgan va mahalliyashtiradigan ishlab-chiqarish quvvatlariga tegishlidir.

- Ikkinchidan - joriy konyuktura keskin yomonlashib borayotgan hozirgi sharoitda eksportga maxsulot chiqaradigan korxonalarning tashqi bozorlarida raqobatdosh bo'lishini qo'llab- quvvatlash bo'yicha konkret chora-tadbirlar amalga oshirishi va eksportni rag'batlantirishi uchun qo'shimcha omillar yaratish.

- Uchinchidan – qat'iy tejamkorlik tizimii joriy etish, ishlab – chiqarish harajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirish hisobidan korxonalarni raqobat bardoshligini oshirish.

- To'rtinchidan - elektroenergetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya iste'molini kamaytirish va energiya tejashning samarali tizimini joriy etish.

- Beshinchidan – jahon bozorida talab pasayib borayotgan bir sharoitda, ichki bozorda talabni rag'batlantirish orqali ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, iqtisodiy o'sishning yuqori suratlarini saqlab qolish.

Yuqorida zikir etilgan vazifalarni inobatga olgan holda, 2009 yildagi iqtisodiy dasturimizning ikkinchi eng muhim ustuvor yo'nalishi boshlangan tarkibiy o'zgarishlarni va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish jarayonlarini davom ettirishdir.

Alohida e'tibor qaratish lozim bo'lgan navbatdagi eng muhim ustuvor vazifa qishloq turmush darajasini yuksaltirish qishloqlarimiz qiyofasini o'zgartirishga qaratilgan uzoq muddatli va bir-biri bilan chambarchas bog'liq keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy soha va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni jadallashtirish, mulkdorning, tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o'rni va ahamiyatini tubdan qayta ko'rib chiqish, fermer xo'jaliklarini rivojini har tamonlama qo'llab-quvvatlashdan iboratdir. Bu globallashtirish rejalarining amalga oshirishning 4 ta prinsipial yo'nalishlari belgilab berildi.

Bu vazifalarni bajarish uchun maxsus “Qishloq qurilish loyiha” loyiha-tadqiqot instituti tashkil etildi va uning to’laqonli faoliyati taminlandi.

- 2011 yil “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yili”.

Respublikamiz Vazirlar mahkamasining kengaytirilgan yig’ilishida 2010 yil yakunlari 2011 yildagi vazifalar - mavzusidagi nutqida Prezidentimiz I.A.Karimov 2010 yildagi yutuq va kamchiliklar bo’yicha barcha sohalarni chuqur analiz qilib berdi. Qishloq xo’jaligida yalpi o’sish 8-10% ni tashkil etdi. Ana shu anjumanda Prezidentimiz 2011 yilni “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yili” deb atadi. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi davom etayotgan bir davrda O’zbekistonda iqtisodiy inqirozga qarshi tadbirlar qo’llanganligi natijasida mamlakatimizda halqimiz farovonligini oshishi davom etdi.

2011 yilda biz veterinariya yo’nalishi bitiruvchi talabalar oldiga quyidagi vazifalar qo’yilgan.

- Mutaxassislik bo’yicha barcha fanlarni chuqur o’rganish va amaliyotda qo’llay olish, ko’nikmalariga ega bo’lish. Mamlakatimiz veterinariya servis hizmati oldiga qo’yilgan global masalalarni o’rganish, va ularni bartaraf qilish tadbirlarini o’zlashtirib olish.

- Chorva mollarining bepushtligi sabablarini yo’qotishdagi asosiy omillardan biri su’niy qochirish uslublari, texnologiyasini qo’llay bilish.

- Asalarichilikni rivojlantirish bo’yicha vazirlar mahkamasining qarorlarini to’liq bajarish

- Chetdan infeksiya kirib kelishi yo’llarini to’liq yo’qotish chora- tadbirlarini o’zlashtirish

- Mamlakatimizda iqtisodiy inqirozga qarshi kurashish ishlarida faol ishtirok etish

- Veterinariya ishida birorta ham xato kamchilikka yo’l qo’ymaslik.

- Jismonan, ma’naviy, ma’rifiy, siyosiy, ruhiy, aqlan, kasbiy, jihatdan yetuk inson bo’lish kabi dolzarb masalalar qo’yiladi.

“Obod turmush yili” Davlat dasturi 8 bo’lim va 86 banddan iborat. Undagi rejalashtirilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifasi davlat va

nodavlat tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, mamlakatimizning barcha fuqarolari qatnashishini taqozo etadi. Ularni bajaradigan muayyan ijrochilar – tegishli vazirlik va idoralar, amalga oshiriladigan tadbirlarning ijro muddatlari, moliyalash manbalari, monitoring tizimi, qonuniy-huquqiy, tashkiliy hamda iqtisodiy mexanizmlari belgilangan.

Birinchidan, O'zbekistonimizda tinchlik-osoyishtalik va xavfsizlikni, fuqarolar va millatlararo ahillik va hamjihatlikni ko'z qorachig'idek saqlash va mustahkamlash bundan buyon ham eng muhim, hal qiluvchi vazifamiz bo'lib qolishi darkor. Albatta, bu masala bo'yicha mas'ul bo'lgan tegishli idoralar bor, kuch-qudratimiz ham yetarli. Lekin qachon yurt tinch va obod bo'ladi? Qachonki har qaysi uyda, har qaysi mahallada yashayotgan odam tinchlik va osudalikning qadriga yetib, uni mustahkamlashni, uni himoyalashni o'zining burchi, deb bilsa, tinchlik uchun kurashsagina bu maqsadga erishish mumkin»

Uning ta'kidlashicha, **ikkinchidan,** obod hayot degan tushuncha azal-azaldan xalqimizning ongu tafakkurida avvalambor farovonlik, to'kinchilik, mo'l-ko'lchilik, qut-baraka, bozorlarda arzonchilik ma'nosini o'zida mujassam etib keladi. Shuning uchun ham bugungi kunda xalq farovonligi tushunchasi Vatan ravnaqi va yurt tinchligi degan, biz uchun eng aziz va muqaddas bo'lgan qadriyatlar bilan birgalikda milliy g'oyamizning asosiy mazmun-mohiyatini tashkil etmoqda. Dasturni tayyorlashda aholi farovonligini, uning real daromadlarini oshirish, bandlik masalasini yechish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini yanada rivojlantirish, davlat tomonidan beriladigan aniq manzilli ijtimoiy yordam tizimini takomillashtirish kabi vazifalar e'tiborimiz markazida bo'lishi lozim. Bir so'z bilan aytganda, xalqimizning "Mehnatdan kelsa boylik – turmush bo'lar chiroylik" degan maqoli zahirida mujassam bo'lgan haqiqatni hayotimiz tarziga aylantirish yo'lida yangi yilda ham katta-katta ishlarni amalga oshirishimiz zarur.

Uchinchidan, obod turmushning yana bir muhim sharti – bu inson salomatligini mustahkamlash bilan bog'liq ekanini barchamiz yaxshi tushunamiz. Haqiqatan ham, odamlarimiz qachon, qayerda bo'lmasin, duoga qo'l ochar ekan,

avvalo, “Tani sog’lik, tinchlik-xotirjamlik bo’lsin, yurtimiz obod bo’lsin”, deb niyat qilishi bejiz emas, albatta. Shu bois xalqimizning salomatligini himoyalash, buning uchun sog’liqni saqlash tizimini eng zamonaviy davolash vositalari, texnika va texnologiyalar bilan ta’minlash, profilaktika, ya’ni kasalliklarning oldini olish ishlarini yanada kuchaytirish, bu sohada fidokorona mehnat qilayotgan tibbiyot xodimlarining mashaqqatli va mas’uliyatli mehnatini moddiy va ma’naviy rag’batlantirish masalalari biz uchun doimiy vazifa bo’lib qoladi.

To’rtinchidan, xalqimizning hayot sifati va darajasini yuksaltirish, jumladan, yangi uy-joylar, zamonaviy yo’l va kommunikasiya tarmoqlarini barpo etish, aholi punktlarini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash, kommunal xizmat sohasidagi muammolarni yechish kabi dolzarb masalalar bo’yicha ham dasturda aniq chora-tadbirlar belgilanishi kerak.

Beshinchidan, biz turmushimizni yanada obod qilish vazifasini oldimizga qo’yar ekanmiz, bir haqiqatni chuqur anglab olishimiz zarur. Ya’ni, hayotimizni obod qilishning muhim sharti – bu avvalo mahallani obod qilish demakdir. Shu borada mahalla idorasining, mahallada yashaydigan aholimizning o’zini o’zi boshqarish tizimini, kerak bo’lsa, ijtimoiy himoyalash tizimini yanada takomillashtirish, mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizdagi o’rni va ta’sirini yanada kuchaytirish, unga yangi huquq va vakolatlar berish bo’yicha ham keng jamoatchilik ishtirokida amaliy takliflar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Oltinchidan, hayotimizni yanada sog’lom va obod qilish, avvalo ayol zotining jamiyatimizdagi o’rni va nufuzini, ijtimoiy faolligini yanada oshirish, xotin-qizlarning turli jabha va yo’nalishlarda qilayotgan ishlarini munosib baholash, har qaysi xonadonda uy bekasi bo’lmish opa-singillarimizning og’irini yengil qilish asnosida turmushimizni farovon etish bilan uzviy va chambarchas bog’liqdir. Ana shu haqiqatni amalda qaror toptirish uchun bizning hali qiladigan ko’p ishlarimiz borligini unutmasligimizni istardim.

1.2. Mavzuning dolzarbligi va ahamiyati

Sil kasalligi zooantropoz kasalliklar guruhiga kiradi va o'ta xavfli yuqumli kasallik. Jahondagi deyarlik barcha mamlakatlarda uchraydi. Kasallik qo'zg'atuvchisining 3 turi aniqlangan.

Mycobacterium tubercuhlosis bovis - yirik shoxli mollarda kasallik qo'zg'atadi.

Mycobacterium tubercuhlosis avinus - parrandlarda kasallik qo'zg'atadi.

Mycobacterium tubercuhlosis humanus - odamlarda kasallik qo'zg'atadi.

Kasallik o'choqlari mamlakatimizda ham bor. Bu kasallikka qarshi kurashish tadbirlari ishlab chiqilgan ammo barcha hududlarda talab darajasida profilaktik davolash sanitar - gigiyenik ishlar olib borilayotganligi sababli kasallik butunlay yo'qolganligi yo'q.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil "O'zbekistonda sil kasalligini to'liq" yo'qotish haqida qarori chiqarildi. Shu qarorning ijrosini bajarish bo'yicha Sog'liqni Saqlash Vazirligi, sanitariya epidemiologiya vazirligi Respublika Davlat Veterinariya Bosh boshqarmasi, huchuq targ'ibot vazirliklari o'zlarining ish rejalarini ishlab chiqib qaror ijrosini bajarmoqdalar.

Bizning mamlakatimizda sil kasalligi to'liq yo'qotilgan emas. Buning abektiv va subektiv sabablari bu muommoning yechilishida biz yangi mutaxasislarning oldida ham ulkan vazifalar turibdi. Demakki sil kasalligiga qarshi kurashish tadbirlari hozirgi kunda ham dolzarb savol bo'lib qolmoqda va bizdan ogohlikni, bilim, mehnat, uquvni, quntini talab etadi.

Tuberkulyoz kasalligi bilan barcha turdagi qishloq xo'jalik hayvonlari va insonlar kasallanadi. Eng xatarli tomoni odamlarning kasallanishi. Veterinariyada odamlardan hayvonlarga yuqadigan kasalliklarga: tuberkulyoz, temiratki, mikrosporiya, chechak kasalliklari kiradi.

Kasallik dunyoning barcha mamlakatlarida urab turibdi. Kasallikning odamlarda ham uchrashi, mavzuning o'ta dolzarbligiga asos bo'laoladi. Bu borada, ya'ni tuberkulyoz kasalligini yo'qotish global muammo bo'lib mediklar, veterinarlar, SES – vrachlari birgalikda kurashishlari lozim.

1.3. Adabiyotlar sharxi

Sil surunkali kechadigan yuqumli kasallik bo'lib, qishloq xo'jalik hayvonlari, yovvoyi hayvonlar, mo'ynali hayvonlar hamda parrandalarda uchraydi. Kasallikka chalingan xayvonlariing ichki a'zo va to'qimalarida maxsus tugunlar — burtmachalar (tuberkulalar) paydo bo'ladi. Sil odamlar orasida xam ko'p tarqalgan kasallikdir.

Odam va hayvonlarning sil bilai kasallanishi juda qadimdan ma'lum. Kasallikiing klinik belgisiga oid materiallar yunon olimi Gippokrat va Buxorolik mashhur olim Abu Ali ibn Sino qo'lyozmalarida uchraydi. Ular kasallikka chalingan odamlarning tez ozib ketishini bayon etadilar. Lekin, shunga qaramasdan kasallikning ksng tarqalishi va uning kelib chiqish sabablari uzoq vaqt muammo bo'lib qolaverdi. 1882 yilda nemis olimi Robert Kox sil kasalligining yuqumli kasallik ekanligini birinchi marta fanda aniqladi va kasal hayvon hamda odam organizmidan uning qo'zg'atuvchisi — sil tayoqchasini ajratib olib, suniy muhitda o'stirdi. 1888 yilda rus olimi X. I. Gelman tuberkulin preparatini olishga muvaffaq bo'ldi, lekin uni matbuotda 4 yil ksyin e'lon qildi. 1890 yili R. Kox ham tubsrkulini (koxengin) preparatini oldi. R. G. Gutman birinchi bo'lib tuberkulinni sil kasalligiga diagnoz qo'yish maqsadida ishlatdi. 1924 yilga kelib Kalmet va Geran odamlarda uchraydigan silning oldini olish maqsadida BSJ vaksinasini ishlatdi.

Sil kasalligini o'rganish, uning oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda sobiq SSSR olimlari: S. N. Vishelesskiy, M. K. Yuskoves, N. L. Naletov, V. I. Rotov, V. Ye. Shurevskiy, M. A. Safin va boshqalarning xizmati katta. Hozirgi kunda respublikamizdagi Veterinariya ilmiy tekshirish institugi bazasida tashkil etilgan maxsus laboratoriya qishloq xo'jalik hayvonlarining sil kasalligini o'rganish bilan shug'ullanmoqda.

Qishloq xo'jalik hayvonlarining sil kasalligi yer sharining qator mamlakatlarida uchraydi. Shunga qaramasdan Daniya, Gollandiya, Chsxiya va Slovakiya, Angliya, AQSh kabi davlatlar bu kasallikka qarshi kurashib, ijobiy natija oldilar, kasallik hozirgi paytda bu mamlakatlarda deyarli uchramaydi. Kasallik sobiq Ittifoqning qariyb hamma zonalarida vaqti-vaqti bilan uchrab turadi.

Keyingi yillarda respublikamizning ayniqsa Samarqand, Sirdaryo, Jizzax, Toshkent viloyatlari va Qoraqalpog'iston xo'jaliklarida kasallik ko'p kuzatildi. Hozir sil kasalligi qator tumanlarda uchrab turibdi.

Sil kasalligi chiqqan xo'jaliklar katta zarar ko'radi, chunki kasallikka chalingan mollar 15 kun ichida fermadan olib chiqiladi va go'shtga topshiriladi, bu esa o'z navbatida tuyoq sonining kamayib ketishiga olib keladi, mahsulot olish pasayib ketadi. Kasallik qayd qilgan xo'jalikda karantin belgilanadi. Uning tadbirlarini bajarish uchun qo'shimcha mablag' sarflashga to'g'ri keladi. Xo'jalik topshirgan chorva mollari mahsulotining standart darajasi tushib ketishi natijasida go'sht va sut kombinatlaridan arzonlashtirilgan miqdorda haq oladi. Kasallangan har bir bosh sigir xo'jalikka o'rtacha 18—20 ming so'm atrofida zarar keltiradi. Bundan tashqari, sil kasalligi bilan odamlar ham kasallanadi va kasal hayvon sil tayoqchasi bilan atrof muhitni ifloslantiradi og'ir formada (generalizasiya holatida) zararlangan hayvonlar go'shti utilga o'tkaziladi.

II. XUSUSIY TADQIQOTLAR

2.1. Sil kasalligi etiologiyasi va epizootologiyasi.

Silni 1882 yilda Robsrt Kox aniqlagan *Musobacterium* deb ataluvchi bakteriya qo'zg'atadi. Mikobakteriya ingichka, to'g'ri, ba'zan uchi qayrilgan tayoqchasimon shaklda, uzunligi 0,8 dan 3—5 mkm, Eni 0,2 dan 0,5 mkm gacha bo'ladi. Bakteriya tez-tez shaklini o'zgartiradi, ya'ni polimorfizm xususiyatiga ega. Mikroorganizm uzoq vaqt sun'iy muhitda o'stirilganda dumaloq shaklda ham namoyon bo'ladi. Spora va kapsula hosil qilmaydi. Sil mikroorganizmining boshqa mikroblardan farqi shundaki, u ishqor, kislota va spirt, antimorfinga chidamlidir. Bu mikrob oddiy bo'linish usuli bilan ko'payadi.

Hozirgi tasnif bo'yicha shu turdagi mikroorganizmlarning uch guruhi mavjud.

1. Patogen mikobakteriyalar (sil, naratuberkulyoz, moxok).

2. Atipik mikobakteriyalar (fotoxromogen, skotoxromogen, neftoxromogen va tez o'suvchilar).
3. Kislotaga chidamli saprofitlar.



Sil tayoqchasi gliserin qo'shilgan sun'iy muhitda yaxshi o'sadi. Laboratoriya sharoitida sil mikroorganizmini o'stirish uchun Petran'yan, Lyubenau, Levenshteyn sun'iy muhitlari, Dyubo suyuq muhiti tavsiya etiladi.

Mikroorganizm Sil – Nilsen usuli bilan bo'yalib mikroskop ostida ko'riladi. Bu usulning mohiyati quyidagilardan iborat:

1. Organizmning zararlangan joyidan tayyorlangan surtma (mazok) havoda quritiladi.
2. Surtma 5 minut davomida metil spirtida fiksasiya qilinadi.
3. Surtma fenol, Sil fuksini bo'yog'i bilan 1—3 minut davomida bo'yaladi.
4. Bo'yalgan surtma suv bilan yuviladi.
5. Surtma 5% li sulfat kislota eritmasi yoki 15% li nitrat kislota eritmasi bilan 2—5 sekund ichida rangsizlantiriladi.
6. Suv bilan yuviladi.
7. Metil ko'ki bilan 0,5—1 minut davomida qo'shimchabo'yaladi.
8. Suv bilan yuvilgach, surg'ich bilan quritiladi.

Bo'yalgan surtma mikroskopning immersiya sistemasida ko'riladi. Sil tayoqchasi qizil rangda, boshqa mikroorganizmlar ko'kimtir rangda, tagi esa havorang bo'lib ko'rinadi.

Sil kasalligini qo'zg'atuvchi mikroorganizmning uch xili mavjud:

1. Odamlar mikroorganizmi — bu xil sil tayoqchasi (M. Humonus) odamlarda sil kasalligini paydo qiladi.
2. Qoramollar mikroorganizmi (M. Vovinus) qoramollarda sil kasalligini qo'zg'atadi.
3. Parrandalar mikroorganyazmi (M. avium) parrandalarda sil kasalligini qo'zg'atadi.

Odamlarda kasallik qo'zg'atadigan tayoqcha ular uchun ko'proq virulentli bo'lib, dengiz cho'chqachasi va olmaxon (xomyak)larda kasallikni tez qo'zg'atadi. Quyon va qishloq xo'jalik hayvonlari uchun kamroq virulentlidir. Sun'iy muxitda o'stirilganda g'adir-budir koloniya iaydo bo'ladi. Tuxum qo'shilgan suniy muhitda ushoqsimon koloniyalar tarzida o'sadi.

Qoramollarda kasallik qo'zg'atadigan sil bakteriyalari shu tur hayvonlar uchun ko'proq virulentli bo'lib, quyon, dengiz cho'chqachasi, oq sichqon, olmaxonlar tez kasallanadi. Bu mikroorganizm qo'y, echki, cho'chqa, mushuk va odamlar uchun kamroq virulentlidir. Suyuq yoki yarim suyuq sun'iy muxitlarda uning ichida o'sadi.

Parrandalar mikobakteriyasi uy va yovvoyi parrandalar hamda quyon va cho'chqalarga ko'proq virulentli, dengiz cho'chqachasi, qoramollar, odamlar uchun kamroq virulentlidir, Sun'iy muhitda halqasimon shaklda o'sadi.

Sil kasalligi qishloq hujalik hayvonlaridan qoramollar, cho'chqalar, qorako'zan va parrandalarda ko'proq, echki, it va g'ozlarda kamroq, qo'y, yilqi va mushuklarda juda kam uchraydi. Kasal mollar kasallik ko'zg'atuvchi manba hisoblanadi. Sil kasalligida ham, xuddi boshqa kasalliklardagi kabi asosan uch omil, ya'ni kasallik qo'zg'atuvchi manba, kasallikning sog'lom hayvonga o'tish msxanizmi va kasallikka moyillik katta rol o'ynaydi. Bu uchburchak zanjir halqasining uzilishi epizootik jarayonning kelib chiqishiga to'sqinlik qiladi.

Mazkur birlamchi omillardan tashqari, kasallikning kelib chiqishiga ta'sir etadigan tabiiy iqlim va ijtimoiy-iqtisodiy holatlar kabi ikkilamchi omillar ham mavjud. Qoramollarda sil kasalligining keng tarqalishiga quyidagilar sabab bo'ladi:

1. Mamlakatning Yevropa zonasidagi rayonlardan sotib olib kelinadigan g'o'najinlar uz joyida yaylov sharoitida boqiladi va o'z faslida asosan o'tloqlarda bo'ladi. Bizning xo'jaligimizga kelib tushgach, bir joyda bog'lab hashaklar bilan boqiladi. Bunda ular yayrab yurolmaydi va o'zi istagan o'tni yeya olmaydi. Natijada organizmning rszistentligi pasayadi. Bizning sharoitda mavjud bo'lgan sil tayoqchalari boshqa geografik rayonlardan keltirgan mollar uchun virulentlidir.
2. Epizootik holatning hamma joyda bir xil emasligi.
3. Sil kasalligini aniqlash uchun o'z vaqtida maxsus diagnostik tekshirishlar o'gkazilmasligi. Mollarni boqish va fermalarning sanitariya holati talab darajasidan past bo'lishi.

Qoramollarda sil bilan kasallangan hayvonlar kasallik qo'zg'atuvchi manba hisoblanadi. Shuni eslatib o'tish kerakki, kasal cho'chqa, qo'y, etki, yilqi, it va mushuklar ba'zan yuqorida ko'rsatilgan turlar uchun kasallik qo'zg'atuvchi manba rolini o'taydi. Kasal hayvon organizmida sil tayoqchasi kuchayib, siydik, go'ng, sut, sperma orqali tashqi muhitga tarqaladi. Kasallikning xavfli tomoni shundaki, uning klinik belgilari namoyon bo'lmasdanoq surunkali, uzoq muddat kechganligi sababli, yashirin davridayoq tashqi muhitga sil tyoqchasini ajratib chiqara boshlaydi. Kasal hayvonlar yo'talganida shilimshiq, suyuqlik bilan tashqi muhitga ko'p miqdorda mikobakteriyalar tushib, devor, oxur, panjara va xar xil predmetlarni ifloslantiradi.

S. A. Traubayev va V. Ye. Shurevskiylarning ta'kidlashicha, 1 ml balg'am tarkibida 50 ming mikobakteriya bo'lib, 66% kasal hayvonlarda mikobakteriya go'ng orqali tashqi muhitga ajralib chiqar ekan. N. N. Daronin va S. I. Muratovlariing aniqlashicha, kasallik sun'iy qo'zg'atilganda 38 kun o'tgach, sil tayoqchasining go'ng orqali ajralib chiqishi kuzatigan.

2.2. Infeksiyaning yuqish yo'llari.

Tuberkulyoz kasalligi alimentar, kantakt yo'l bilan, aerogen yo'l bilan, jinsiy yo'l bilan, kasal hayvondan sog'lom hayvonlarga yuqadi.

Sil tayoqchasi kontakt yo'l bilan, havo va ozuqalar orqali sog' mollarga o'tishi mumkin. Fermalarda sanitariya qoidalariga qat'iy amal qilingan taqdirda, sil tayoqchasining nushxo'rtlar orqali o'tishi kamayib, u asosan, havo orqali o'tadi. Yaylov sharoitida aksincha holat ro'y beradi, ya'ni havo orqali o'tish kamayib, ozuqalar bilan o'tish ko'payadi. Hayvonlar yo'talganida organizmdan balg'am va so'lak ajralib tashqi muhitga tushadi. Bu o'z navbatida tashqi muhitdagi obyektlar (havo, suv, ozuqa, xo'rak, har xil idishlar)ning zararlanishiga olib keladi. Sil tayoqchasi sut va og'iz suti orqali ham tarqaladi. Shu sababdan bu mahsulot-lar orqali tarqalish faqat buzoqlar uchun emas, balki boshqa tur hayvoilar uchun ham xavflidir. Biotermik usulda zararsizlantirilmagan go'ngning dalaga chiqarilishi va o'sha yerdan o'rib keltirilgan xashakning mollarga berilishi ham sil tayoqchasining tarqalishida katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, kasallik tarqalgan fermalarda ishlatilgan transport vositalari ham sil tayoqchasiniig tarqalishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Zararsizlantirilmagan go'ng solingan ekinlarni odamlarning parvarish qilishi ham ko'ngilsiz hodisalarga olib kelishi mumkin.

Sil kasalligining tayoqchasi organizmga ozuqa yoki havo orqali tushgach, o'pka va boshqa a'zolariga tarqaladi. Sil tayoqchasi tushgan joy yallig'lanib, to'qimalarning proliferasiya va ekssudasiya jarayoni davom etadi. Natijada ko'p yadroli gigant va epitelioid hujayralar yig'iladi. To'qima oralarida to'plangan fibrinlar uvib qotadi va tomirsiz sil tugunlari paydo bo'ladi. Keyinchalik tugunlar kapsula bilan o'raladi.

Kapsula ichiga tushgan tugunlar oziq moddasi kelib tushmasligi natijasida va mikroorganizm chiqargan toksinlar ta'sirida o'ladi. Bu quruq massa bo'lib, xuddi sarg'ishroq suzma rangini eslatadi. Agar birinchi sil tugunlari o'pka va ichakda uchrasa, buni birinchi effekt dsb yuritiladi. Bu joydan mikroorganizm limfa orqali limfatik tugunlarga tarqaladi va butun regional limfatik sistemani zararlashi mumkin. Mikobakteriyalar qonga tushib, qisqa muddatli mikobakteriya

holatini qo'zg'atadi. Ko'pincha asta-syokinlik bilan geperalizasiyalashgan shaklda kechish hollari kuzatiladi. Kasallangan hayvonlar o'pkasida katta sil tugunlari paydo bo'ladi, Qo'l bilan paypaslab ko'rilganda xuddi mushtdek qattiq bo'lib seziladi. Shilliq qavatlar va ichki a'zolarining boshqa joylari zararlanganda juda ko'p mikdordagi marjonsimon sil bo'rtiqchalari paydo bo'ladi. O'pkaning to'liq va boshqa a'zolarining kuchli (generadizasiyalashgan) zararlanishi hayvonlarning tez oshib ketishiga olib keladi va mahsuloti keskin kamayib ketadi. Oqibatda kasal hayvon tez kunda juda oriqlab, o'ladi.

So'nggi yillarda bizning sharoitimizda sil kasalligi shunday kechishi tez-tez kuzatilmoqda.

2.3. Patologik materialni olish va diagnostik tekshirish metodlari

Har xil a'zo va to'qimalarda maxsus tugun va bo'rtiqchalar (tuberkula) paydo bo'lishi kasallikka xos xarakterli belgilardan hisoblanadi. Bu tugunlar tariq donasidan to tovuq tuxumidek va undan kattaroq bo'ladi. Sil bo'rtiqchasi va tugunlari kesib ko'rilganda ichi xuddi quruq suzmasimon massani eslatadi. Qoramollarda silga oid o'zgarishlar o'pka va limfatik tugunlarda ro'y-rost namoyon bo'ladi. Limfatik tugunlar kattalashib ketadi, qattiq bo'ladi va markazida kazeoz massa ko'zga tashlanadi. Shilliq pardalar zararlanganda (gavharsimon) uning yuzasida shakli o'rmon yong'og'iga o'xshash juda ko'p sonli qattiq yaltiroq sil tugunlari paydo bo'ladi.




P.I. Kakuricheva (1950) bergan ma'lumotga qaraganda kasallikka chalingan qoramollarda ko'krak qafasidagi limfatik tugunlar 100 foiz, o'pka 90 foiz, taloq 5 foiz, yelin 3 foiz ichak 1 foiz zararlanadi. R. V. Tuzova (1974) cho'chqalar yil davomida sil bilan kasallanganda ichak atrofidan limfatik tugunlar 88 foiz, boshqa limfatik to'nlar esa 5-36 foiz zararlanganligini aniqlagan. Yilqilarda ham silga xos o'zgarishlar asosan limfatik tugunlarda namoyon bo'ladi. Parrandalarda silga xos O'zgarishlar jigarda 70 foiz, taloqda 90 foiz, suyak va ichaklarda ham tez-tez uchraydi.




Sil kasalligiga diagnoz qo'yish uchun uning epizootologiyasi, klinik belgisi va kechishi, patologoanatomik o'zgarishlar o'rganilib, allsrgik, serologik va laboratoriya tskshtirish usullari qo'llaniladi. Hayvonning tirikligida sil kasalligi asosan allergik tekshirish usuli bilan aniqlanadi. Sil kasalligini aniqlash uchun qo'yidagi allergenlar ishlatiladi:

1. Sut emizuvchilar uchun alttuberkulin.
2. Quruq tozalangan tuberkulin (PPD), sut emizunchilar uchun.
3. Quruq tozalangan tuberkulin (PPD), parrandalar uchun.
4. Simultan allsrgik tekshirishda maxsus tur allergen bilan birga atipik mikobakteriyadan tayyorlangan kompleks allergen (KAM) ishlatiladi. Preparat joylashgan qutichada uning kursatmasi (nastavleniye) ham bo'ladi.



2.4. Sil kasalligining umum va maxsus profilaktik tadbirlari

Sil kasalligi antropozonoz kasalliklar guruhiga kiradi. Shu sababli bu kasallikning oldini olish va davolash tadbirlari majmuasini har bir veterinar vrach va medik tula, talab darajasida o'zlashtirish shart. Umum profilaktik tadbirlariga oziqa rasionning to'g'ri tuzilishi, sanitariya gigenik tadbirlarni yetarlicha bajarilishi, yangi keltirilgan hayvonlarning albatta bir oy davomida izolyatorda saqlanib tuberkulinizasiya o'tkazilishi, sog'lom deb topilganda asosiy podaga qo'shilishi lozim. Maxsus profilaktik tadbirlarga lozim topilganda BSJ vaksinasi bilan emlash tavsiya etiladi.



Buning uchun 3 bosh quyon va 3 bosh dengiz cho'chqachasi olinadi. Ularning harqaysisiga 1 mgdan bakteriya massasi yuboriladi. Quyonlarga bu massa venaga, dengiz cho'chqachalariga esa teri ostiga yuboriladi. Qoramollarga mansub bo'lgan sil bakteriyasi quyon na dengiz cho'chqachalariga yuqtirilgandan keyin 3 haftadan 3 oygacha davr ichida generalizasiya holatidagi sil kasalligini qo'zg'atadi. Odamlarga mansub bo'lgan turi esa dengiz cho'chqachalarida xuddi yuqoridagi turdek kasallik qo'zg'atadi. Quyonlarda yuzaki sil shaklida ko'zga tashlanadi. Parrandalarga mansub bo'lgan tur mikroorganizm 1 oy davomida quyonlarda o'linga olib borish bilan kechsa, dengiz cho'chqachalariga hech narsa qilmaydi. Sil kasalligi turlar orasida kechadigan yuqumli kasallikdir. Bu o'rinda shuni aytish kerakki, qoramollar silining ko'zg'atuvchisi boshqa turdagi hayvonlar, shuningdek odamlarda ham uchrashi mumkin va aksincha hollar ham tez-tez kuzatiladi. Shuni qayd qilish lozimki, sil kasalligining uch turdagi ko'zg'atuvchisi kasalga chalingan odamlar, qoramollar, yilqi, echki, cho'chqa va quyoilarda laboratoriya sharoitida ajratib olingan. Odamlarga mansub sil tayoqchasi esa it, mushuk, tuya va dengiz cho'chqachalarida ham uchraydi.

A. I. Katramanovning fikricha (1968) qoramollar orasida odamlarga mavjud tur sil tayoqchasi tez-tez uchrab, bunda odam kasallik ko'zg'atuvchi manba bo'lar ekan.

Sil kasalligining ko'zg'atuvchilari tashqi muhit sharoitiga chidamli bakteriyalar 1 guruhiga mansub bo'lib, o'zining kasallik qo'zg'atish xususiyatini uzoq muddatgacha saqlay oladi. Masalan, oqar suvlarda 10 oygacha, botqoqlikdagi suv manbalarida esa 12 oygacha yashay oladi.

Vishnevskiy P. P. (1935), Ya. R Kovalenko (1977) ning bergan ma'lumotiga qaraganda qoramollarga mansub sil tayoqchasi tuproq va go'ngda 4 yilgacha, parrandalariing sil tayoqchasi esa 10 yilga qadar yashay olar ekan. Quyoshning tik tushgan nuri mikobakteriyani 4—5 soat ichida o'ldiradi. Bu ayniqsa, bizning sharoitimizda, yoz oylarida sanasiya o'tkazishda hisobga olinishi zarur. Bakteriya kasal hayvonning o'pka shilimshiq moddasi tarkibida 30—49 kun, balg'amda esa 5—6 oygacha yashaydi.

Sil kasalligining qo'zg'atuvchisi nam, zax, yaxshi yoritilmagan molxonalarda juda uzoq muddat saqlanadi. Past va yuqori temperaturalar sil tayoqchasining modda almashinish holatini pasaytirib yuboradi. 8°S da muzlatilish sut va qaymoq mahsulotlarida 120 kungacha yashay oladi. V. I. Rotov va boshqalar (1978) liofilizasiya (quritilgan) muhitida bakteriya 8 oydan 36 oygacha saqlanishini isbotladilar. Har xil mualliflarning ta'kidlashicha, bakteriya ho'l muhitda 50°S da 12 soatda, 60°S da bir soatda, 70°S da 10 minutda, 100°S da esa darhol halok bo'ladi. Qaynatilgan muhitda mikobakteriya 5 minutda o'ladi.

M. A. Safinning ta'kidlashicha, moylik darajasi 5% dan yuqori bo'lgan sutlar 100°S da 15 minut qaynatilishi maqsadga muvofiqdir.

Atipik mikobakteriyalar. Bu turga oid mikobakteriyalar Rinon sxemasi bo'yicha quyidagi guruhlariga bo'linadi.

1. Fotoxromogenlar. Bular sariq rang ajratib tez o'sadi. Antibiotiklarga chidamli. Dsngiz cho'chqachalari va quyonlarda kasallik qo'zg'atmaydi. Sichqonlarning o'pkasi va buyragi zararlanadi.
2. Spiroxromogenlar, 22°S da sariq-qizg'ish rang berib o'sadi. 45°S da o'smaydi. Antibiotiklarga chidamli, laboratoriya hayvonlarida kasallik qo'zg'atmaydi.
3. Neftoxromogenlar. Oddiy muhitda o'saveradi, faqat sichqonlarda kasallik qo'zg'atadi, cho'chqalarda limfodenitni keltirib chiqaradi.
4. Tez o'suvchi guruh, 22°S da 3 kunda o'sadi. Rang berib o'sadiganlari ham bor. Bu guruh mikroblar quruqlik uchun ishlatiladigan torf tarkibida uchraydi (boshqa muhitlar ham holi emas).
5. Kislotaga chidamli guruhga oid turlar. Bular uy temperaturasida o'sadi, laboratoriya hayvonlari chidamli.

Hayvon organizmiga tushgach, paraallergiya reaksiyasini namoyon qiladi.



2.5. Bajarilgan veterinariya tadbirlarining samaradorligi

Kasallik qayd qilingan xo'jaliklarda karantin e'lon qilinadi. Mol sotish va sotib olish man etiladi. Mollarning guruhini almashtirish va aralashtirish qonunga xilof hisoblanadi. Kasal mollarni darhol ajratib olinadi va 15 kun ichida go'shtga topshiriladi, Ularga «T» belgisi bosiladi. Kasal mollarni bir yo'la topshirishning iloji bo'lmasa, vaqtincha izolyator tashkil etish mumkin. Izolyator veterinariya-sanitariya talabiga to'liq javob berishi zarur. Kasal mollardan nasl olish va qochirish mumkin emas. Klinik belgisi aniq namoyon bo'lgan mollar sutiga formalin, kreolin va boshqa dezinfektsiyalovchi moddalar qo'shib, yo'q qilinadi. Silga reaksiya bsrigan mollardan sog'ilgan sut xo'jalikning o'zida kuydirilgan moyga aylantiriladi va sut kombinatlariga mahsus yo'llanma bilan jo'natiladi. Qolgan sigirlardan sog'ib olingan sut 90 °S da 5 minut yoki 85°S da 30 minut pastsrizasiya qilinadi. Shundan keyingina ichish va topshirishga ruxsat etiladi. Bunday xo'jaliklarning sut mahsuloti mahsus sisterna va idishlarda tashiladi. Sut sog'ish apparatlari va idishlari har kuni qaynoq suvda yuvilib dezinfektsiya qilinadi. Dezinfektsiya 0,5% li dezmol eritmasi bilan 5 minut davomida amalga oshiriladi. Dezinfektsiya uchun xlorli ohakning 5% li aktivlik darajasidagi eritmasi, 1 % li glutar aldegidning suvdagi eritmasi, 2% li metafor, 5% li natriy fenolyat, 3%

li ishqorli kreolin ishlatiladi. Yopiq xonalarda esa aerosol usulida dezinfeksiya o'tkazish mumkin. Buniig uchun 38—40% li formaldegid 40 ml/m³ hisobida ishlatiladi.

Tuproq qatlamshga ishqorli formal'degid bilan zarar-sizlantiriladi (formaldsgid 10,0, xlorli ohak 1m² yuza uchun 5 mg). Go'ng 2 yil mobaynida biotermik usul bilan zararsizlantiriladi. Fermadagi suyuq ahlatlar 1 m³ suyuq massaga 30 kg ammiak qushib, 5 kun ichida zararsizlantiriladi. Shular bilan bir qatorda dezinfeksiya va derati-zasiya ham o'tkaziladi. Sanpropusknigi yuq fsrma faol ishlay olmaydi.

III. VETERINARIYA QONUNCHILIGIDA TUBERKULYOZ KASALLIGIGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA YO'RIQNOMALAR

Qishloq xo'jalik hayvonlarini ikki xil usul bilan allergen qo'llab sil kasalligini tskshirib kuriladi. Teri ichiga yuborish; ko'zga tomizish (oftalmosinama), hozir keyingi usul ko'p qo'llanilmaydi. Tuberkulin (allergen) quritilgan holatda bo'lib, uni ishlatashdan oldin maxsus eritgichda eritiladn. Eritgich allergen bilan birga yuboriladi va yozma ko'rsatma bo'lib, shunga asosan ish tutiladi. Qoramollar, qo'tos, zebu va bug'ularning buyin terisi ichiga, qo'y, echki va muynali hayvonlar qo'loq suprasinipg ustki qismiga, qorakuzanlarga ko'zining yuqori qovogiga, tovuqlarda sirg'alariga yuboriladi. Qoramollarda 0,2 ml tuberkulin teri ichiga yuborilib, natija 72 soatdai ksyin ko'rilib, teri qatlamining 3 mm va undan ko'prok o'zgarishini ijobiy, yani kanal dsb hisoblanadi. Teri qatlamining qalinligi allergen yuborishdan avval o'lchanib, vedomostga yoziladi. Reaksiya natijasi qo'y echkilarda 48 soatdan, parrandalarda esa 30—36 soatdan keyin tekshiriladi. Laboratoriya usuli bilan diagnoz qo'yilganda zararlangan a'zolardan mahsus preparatlar tayyorlanadi va mikroskop ostida tekshiriladi. Sil tayoqchasi mahsus muhitlarda o'stirish yo'li bilan ajratiladi, Zarurat tugilgan hollarda esa dengiz cho'chqachalariga yuqtirib, kasallik qo'zg'atib ko'riladi.

Keyingi paytlarda sil kasalligiga allergen yuborib diagnoz qo'yishda reaksiyaning natijasi hayvonning kasal holatini tasdiqlamagan hollar ham kuzatilmoqda. Bunday hollarda ro'y bergan reaksiyani nospesifik deb yuritiladi. Nospesifik reaksiyalar ikki xil bo'ladi paraallergiya va psevdoadsrgiya. Paraallergiya reaksiyasi organizmga antigen holati yaqin bo'lgan har xil atipik mikrobakterilar va kislotaga chidamli saprofitlar tushishi natijasida ro'y beradi. Psevdoadsrgik reaksiya fassiolyoz, exinonokokkoz, lsykoz kasalliklarida hamda moddalar almashinuvi buzilganda, bo'g'ozlik davrida, ob-havo o'zgarishi hamda boshqa stress omillar ro'y berganda namoyon bo'ladi.

Silga qarshi kurash choralari. Kasal mollar davolanmaydi. Kasallikning oldipi olish uchun BSJ preparati ishlatiladi. (Veterinnariya Boshqarmasinnng ruxsati bilan). O'zNIVI bergan tavsiyaga qaraganda tubazid va boshqa preparatlar kasallikning oldini olishda yordam beradi. Kasallikka qarshi kurash qo'yidagi sxema bo'yicha olib boriladi.

Mollari sog'lom xo'jaliklarga chetdan olib kelingan mollar 30 kun ichida profilaktik karantindan o'tkaziladi. Bu davrda sil kasalligiga qarshi tekshirib ko'riladi. Fermaning ichida podalar to'dasini o'zgartirish, almashtirish, biridan ikkinchisiga o'tkazish qat'iy man etiladi. Chetdan keltirilgan mollar faqat veterinariya guvohnomasi bilan qabul qilinadi. Fermaning veterinariya-sanitariya holati yaxshilanib, mollarni asrash, boqish va molxonalar sharoiti zoogigiyena talablari asosida amalga oshirilishi lozam.

Agar sil kasalligining ayrim belgilari namoyon bo'ladigan bo'lsa, veterinariya vrachi darhol uni aniqlashga kirishishi zarur. Yaylov sharoitida ham silga chalingan mollarni sog'lom mollar bilan yonma-yon boqish qat'iy man etaladi.

Xo'jaliklardagi sog'lom mollar yiliga ikki marta reja asosida silga qarshi allergen yerdamida tekshiriladi.

Ferma yopiq holatda bo'lib, unga faqat mxsus ruxsatnomasi bo'lgan kishilargina kirishi lozim. Ferma xodimlari vaqti vaqti bilan tibbiy muassasalarda

ko'rikdan o'tib turishlari zarur. Kasallik qayd qilingan parrandachilik fermalaridan jo'ja ochirish uchun tuxum olib chiqishga ruxsat berilmaydi.

Sil uchragan fermadan chiqadigan sut va sut mahsulotlari zararsizlantirilib, keyin foydalanishga tavsiya etiladi. Klinik tekshirish va diagnostik allergen bilan kasallikni aniqlash qo'yidagicha olib boriladi:

- Sigir va nasldor buqalar yiliga ikki marta;
- Buzoqlar 2 oylikdan boshlab, bo'rdoqichilik xo'jaliklarida esa yiliga bir marta;
- Yilqilar, xachir va qo'y-echkilar xo'jalikning epizootologik holatinn hisobga olib;
- Hamma yoshdagi ona cho'chqalar va cho'chqa bolalari hamma xo'jaliklarda yiliga bir marta;
- Inkubasiya xo'jaliklari uchun tuxum beradigan zotli reproduktorlar yiliga bir marta tekshiriladi;
- Sanoat parrandachilik xo'jaliklarida 10 foiz parrandalar allergen bilan tekshirib ko'riladi. Jo'jalar olti oylikdan boshlab tekshirila boshlanadi.

Sil kasalligining yashirin davri 2—6 hafta davom etadi. Kasallikning kelib chiqishi va uning kechishida mollarni boqish, asrash sharoiti va sil tayoqchasining virulentlik holati katta ahamiyatga ega. Kasallik yuqqandan keyin, uning klinik belgilari namoyon bo'lgunga qadar oylab, ba'zan yillab vaqt o'tishi mumkin. Sil kasalligi asosan surunkali kechadi. Shuning uchun uning klinik belgilariga qarab diagnoz qo'yish ancha qiyin. Ko'p hollarda tananing harorati o'zgarmaydi. Kasal hayvon asta – sekin oriqlay boshlaydi, lyokin ishtahaning pasayishi sezilmaydi. Terining elastik holati yo'qoladi. Sil kasalligida o'pkaning zararlanishi yo'tal bilan kechadi. Kasallikning boshlang'ich davrida kam, kuchli va qisqa yo'tal, keyinchalik esa kuchsiz, lekin azob beruvchi yo'tal paydo bo'ladi. Bu holat ayniqsa ertalab, sovuq paytlari eshik birdan ochilganda aniq namoyon bo'ladi. Sil kasalligining har qanday kechishida ham limfatik tugunlar zararlanadi ular shaklan o'zgarib, juda kattalashib ketadi. Og'ir kechgan (generalizasiyalashgan) sil kasalligida tananing yuza qismida joylashgan limfatik tugunlar shunchalik

